

Nasr ibn Ahmad



Nasr ibn Ahmad

Nasr II ibn Ismoil Somoniy, Amiri Sa'id (Saodatlik)

(taxminan 906-943)

(914-943)

Somoniylar davlati hukmdori. Davlatni 8 yoshli Nasr ibn Ahmad nomidan vazir **Jayhoniy** boshqargan. Uning davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoga joylashgan edi. Uning hukmronligi davrida somoniylar davlati hududlarida karmatlar harakati ancha keskin tus oldi. Nasr ibn Ahmad *shia mazhabini* qabul qilganidan norozi bo'lgan sunniy ruhoniylar turk gvardiyasi yordamida Nasr ibn Ahmadga qarshi fitna uyushtirishgan. Bundan xabar topgan Nasr ibn Ahmad fitnani fosh etib, o'z o'g'li **Nuh** foydasiga taxtdan voz kechgan.

2023-10-29 20:23:19